



**YUNESKO ishlari bo'yicha
O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi**

**National Commission
of the Republic of Uzbekistan for UNESCO**

O'zbekiston, Toshkent, 100017, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 2-uy / 2, Abdulla Qodiriy Street, Tashkent, 100017, Uzbekistan
tel: (+998-90) 186-06-13 e-mail: info@unesco.uz e-xat: neu@exat.uz

2022-yil 8-yanvar № 007/22

**Vazirlik idora va tashkilotlarga
(ro'yxat bo'yicha)**

YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi nomidan o'z hurmatimizni izhor etib, 2022-2023-yillar uchun YUNESKO Qatnashuv dasturi doirasida moliyalashtiriladigan loyihalar bo'yicha takliflar qabul qilish jarayoni boshlanganligini ma'lum qilamiz.

Qatnashuv dasturining asosiy maqsadi YUNESKO tashkiloti faoliyati, ustuvor dasturlari hamda fanlararo loyihalari bilan bevosita hamohang bo'lgan a'zo-davlatlar va nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan milliy, mintaqaviy, xalqaro loyihalarni tahlil qilish, baholash va amalga oshirishga ko'maklashishdan va shu orqali tashkilot faoliyatini targ'ib etishdan iborat. YUNESKO tashkilotining 2022-2025-yillar uchun dasturlari loyihasi ilova etilmoqda.

Qatnashuv dasturi bo'yicha milliy loyiha byudjeti YUNESKO tashkilotining ustuvor yo'nalishlariga hamohang, 26000 AQSH dollari miqdoridan oshmasligi va quyidagi yo'nalishlarni qamrab olishi lozim:

- ilmiy-amaliy anjumanlarni tashkil etish,
- nashrlarni chop etish,
- uskunalarni sotib olish (faqat ruxsat etilgan uskunalar),
- o'quv mashg'ulotlar o'tkazish.

Shu munosabat bilan, YUNESKO tashkilotining 2022-2023-yillar uchun tasdiqlangan dasturlariga hamohang bo'lgan loyihani tayyorlashda va **joriy yilning 4-fevral** kuniga qadar Milliy komissiyasi kotibiyatiga taqdim etishda amaliy yordam berishingizni so'raymiz. Loyiha shakli ilova qilinmoqda.

Ilova: loyiha shakli va 2022-2025-yillar uchun YUNESKO dasturlari loyihasi.

Bosh kotib


G.Umerova